

BEZORILIKKA MOYIL VA O'ZLASHTIRISHI SUST BO'LGAN BOLALAR USTIDA ISHLASH

Abdullayeva Sabrina Jamshid qizi

Abdusodiqova Nigina Samandar qizi

Samarqand davlat universiteti Urgut filiali 1-kurs talabalari.

sabrinaabdullayeva703@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15491586>

Annotatsiya. Mazkur ishda bezorilikka moyil va o'zlashtirishi sust o'quvchilar bilan ishlashning psixologik-pedagogik jihatlari yoritilgan. Tatqiqotda bunday o'quvchilarning xulqatvori, o'zlashtirish darajasining past bo'lism sabablari va ularning jamoadagi ijtimoiy moslashuvi muammolari tahlil qilinadi. Shuningdek, ularni ijobiy yo'naltirish, darsga qiziqishini oshirish, motivatsiyasini kuchaytirish hamda individual yondashuv asosida ta'lim-tarbiya jarayoniga faol jalb etish bo'yicha samarali usullar ko'rib chiqiladi. Ushbu mavzu bo'yicha olib borilgan ishlar maktab psixolog, sinf rahbari va ota-onalar hamkorligini talab etadi. Ish natijalari bezorilik holatlarini kamaytirish va o'zlashtirish darajasini oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Psixologik-pedagogik, individual yondashuv, bezorilik, motivatsiya, ta'lim-tarbiya, psixologik muhit, o'zlashtirish.

Аннотация. В данной работе рассматриваются психолого-педагогические аспекты работы с учащимися, склонными к травле и имеющими низкую успеваемость. В исследовании анализируется поведение таких студентов, причины их низкого уровня успеваемости, проблемы их социальной адаптации в обществе. Также будут рассмотрены эффективные методы их позитивного наведения, повышения интереса к уроку, повышения мотивации и активного вовлечения в образовательный процесс на основе индивидуального подхода. Работа над этой темой требует сотрудничества школьного психолога, классного руководителя и родителей. Результаты работы будут способствовать снижению уровня травли и повышению уровня мастерства.

Ключевые слова: Психолого-педагогический, индивидуальный подход, буллинг, мотивация, воспитание, психологическая среда, мастерство.

Abstract. This work covers the psychological and pedagogical aspects of working with students prone to bullying and with poor learning. The study analyzes the behavior of such students, the reasons for the low level of learning, and the problems of their social adaptation in the team. It also considers effective methods for positively directing them, increasing their interest in the lesson, increasing their motivation, and actively involving them in the educational process based on an individual approach. The work carried out on this topic requires the cooperation of a school psychologist, class teacher, and parents. The results of the work serve to reduce bullying and increase the level of learning.

Keywords: Psychological and pedagogical, individual approach, bullying, motivation, education, psychological environment, learning.

Kirish.

Zamonaviy ta'lim tizimida bolalarning individual xususiyatlarini inobatga olish muhim masalalardan biridir. Ayniqsa, bezorilikka moyil va o'zlashtirishi sust bo'lgan bolalar bilan

ishlash ta'lim-tarbiyada alohida yondashuvni talab etadi. Bunday bolalar ko'pincha o'z his tuyg'ularini to'g'ri ifoda etolmasligi yoki ijtimoiy muhitga moslashishda qiyinchiliklarga duch kelishadi. Ularning rivojlanishidagi to'siqlarni aniqlash va yengib o'tishda psixologik – pedagogik yondashuvlar, individual reja asosida olib borilgan tarbiyaviy ishlar muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu mavzu aynan shu toifadagi bolalar bilan samarali ishslash usullari, ularning salbiy xulq-atvorini ijobiy tomonga yo'naltirish va o'quv faoliyatini yaxshilash imkoniyatlarini yoritib beradi.

Bezorilikka moyillik ko'pincha oilaviy muhit, atrof-muhitning salbiy ta'siri, shuningdek, bolalarning psixologik holati bilan bog'liq bo'ladi. O'zlashtirishi sust bolalar esa ko'pincha motivatsiyaning pastligi, e'tiborning tarqoqligi yoki individual o'quv ehtiyojlarining e'tibordan chetda qolishi tufayli orqada qoladilar. Ta'lim mussasalarida bunday bolalar bilan ishslashda faqatgina jazo yoki tanbeh bilan emas.

Bunday yondashuv o'qituvchi va psixoglarning hamkorlikda ishslashini bolaning xatti-harakatlarini sabablarini chuqur tahlil qilishni va unga mos individual dastur ishlab chiqishni talab etadi. Shuningdek, ota-onalar bilan hamkorlik, maktab va oilaning o'zaro aloqasi bolaning ijtimoiylashuvi va muvaffaqiyatlari moslashuvi uchun muhim omildir.

Mazkur ishda bezorilikka moyil va o'zlashtirishi sust bo'lgan bolalar bilan ishslashning samarali usullari, pedagogik-psixologik yondashuvlar hamda ijobiy natijalarga olib keluvchi strategiyalar yoritiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR:

Bezorilikka moyil va o'zlashtirishi sust bo'lgan bolalar ustida ishslash bo'yicha adabiyotlarda turlicha tahlil qilinadi. Ba'zi adabiyotlarda psixologlar turlicha tahlil qiladi.

Vigotskiy bolaning rivojlanishida o'qituvchi va tengdoshlarining ta'sirini chuqur o'r ganadi. Bezorilikka moyil bolalarning xulqi ko'pincha ijtimoiy aloqlarning natijasi sifatida talqin qilinadi. U "yaqin rivojlanish zonasasi" nazaryasi orqali o'qituvchining faol ishtiroki bilan bolaning ichki imkoniyatlarini ochib beradi. Vigotskiy bolani faqat mustaqil bajara olgan ishlarga qarab emas, balki, kattalar yoki tajribaliroq tengdoshlari yordamida bajara oladigan ishlariqa qarab baholash kerakligini ta'kidlaydi. Bu- bolaning yaqin rivojlanish zonasidir.

A. A. Rean zamonaliviy rus psixologi bo'lib, ijtimoiy psixologik muammolar, ayniqsa bolalar o'smirlar xulq-atvori , zo'ravonlik, bezorilik va ta'lim muhitidagi salbiy omillar haqida chuqur tadqiqotlar olib borgan. Reanning fikriga ko'ra bezorilik bolalarning atrof- muhitga (maktab ,oila jamoa)psixologik jihatdan to'g'ri moslasha olmaslididan kelib chiqadi . Bu xatti-harakatlar bolaning ichki muammolari – e'tiborga ehtiyoj, o'zini ifoda eta olmaslik, stress, tajovuzkorlik kabi holatlar bilan bog'liq.

M. Nazarova – O'zbekistonlik pedagog-olim bo'lib, pedagogik diagnostika, ta'limda muammoli xulq va sust o'zlashtiruvchi bolalar bilan ishslash masalalariga bag'ishlangan bir qancha ilmiy uslubiy ishlar muallifidir. M. NAzarovaning ta'kidlashicha muammoli xulq (bezorilik, tajovuzkorlik, sustlik) bolalarning nafaqat psixologik, balki, pedagogik, ijtimoiy va madaniy muhit bilan o'zaro aloqasidan kelib chiqadi. Bunday bolalar bilan o'qituvchi, psixolog, ota-onsa va sinfdoshlar birgalikda ishlashi kerak.

Ushbu adabiyotlar tahlili asosida mazkur maqolada psixologik tarbiya masalasiga integrativ yondashuv taklif etiladi. Har bir tajriba va nazariyada bolaning ichki olami, ruhiyati va tarbiyasini anglab olishga da'vat etadi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA:

Bezorilikka moyil va o'zlashtirishi sust bo'lgan o'quvchilar bilan ishlas davomida psixologik-pedagogik bir nechta tadqiqotlar o'tkazildi:

Birinchidan, bezorilik va sust o'zlashtirishning asosiy sabablari –oilaviy muhit, o'qituvchi bilan salbiy munosabat, psixologik beqarorlik, o'zini past baholash va ijtimoiy-emotsional rivojlanishdagi kechikishlar bilan bog'liqligi tasdiqlandi.

Ikkinchidan, muammoli o'quvchilar bilan ishslashda individual yondashuvning ahamiyati –Vegotskiyning “Yaqin rivojlanish zonasasi” nazaryasiga asoslanib, bolaga imkoniyat berilsa va to'g'ri yo'naltirilsa, u o'z salohiyatini namoyon qila olishi ko'rsatiladi.

Uchinchidan, motivatsiyani oshirish –sust o'zlashtiruvchi bolalar uchun o'yinli, interaktiv usullar, ijobiy rag'bat va muvaffaqiyatni his qilish imkoniyati ularni o'quv faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

To'rtinchidan, bezorilikni kamaytirish yo'llari –ijtimoiy-emotsional ko'nikmalarini rivojlantirish jamoaviy ishga jalb qilish, yetakchilik faoliyatini ijobiy tomonga yo'naltirish orqali tajovuzkor xulqni kamaytirish mumkinligi aniqlandi.

Beshinchidan, O'qituvchining roli-M. Nazarova va A.A .Rean ta'kidlaganidek, o'qituvchi bolaga shunchaki bilim emas, balki ijtimoiy-psixologik yordam beruvchi shaxs sifatida yondashganda, xulqdagi salbiy holatlar bartaraf etiladi.

Bunday bolalar bilan ishslashda faqatgina intizomli choralar emas, balki chuqur psixologik, pedagogik tahlil va moslashtirilgan metodik yondashuvlar muhim ahamiyatga ega. Har bir bolani o'ziga xos xususiyatini hisobga olgan holda yondashilsa, ijtimoiy moslashuv, bilim olish sifati va xulq-atvorda sezilarli ijobiy o'zgarishlarga erishish mumkin.

XULOSA.

Bezorilikka moyil va o'zlashtirishi sust bo'lgan bolalar bilan ishslash ta'lim jarayonida dolzarb masalalardan biridir. Ularning muammoli xulqi ko'pincha oilaviy muhit, psixologik omillar, o'qituvchining yondashuvi va sinf muhitiga bog'liq bo'ladi. Ilmiy va nazariy manbalar asosida shuni aytish mumkinki:

- ° Har bir bola individual yondashuv va qo'llab-quvvatlovchi pedagogik muhitga muhoj;
- ° Diagnostika, ijtimoiy –emotsional tarbiya va motivatsiyaga asoslangan metodlar samarali hisoblanadi;
- ° O'qituvchining bag'rikeng, tushunuvchi va ijtimoiy yo'naltiruvchi pozitsiyasi muhim rol o'ynaydi .

Demak, bu toifadagi o'quvchilar bilanishlashda sabr, tizimlilik va ilmiy yondashuv asosiy omillardan biridir. To'g'ri tashkil etilgan tarbiya va ta'lim orqali ularning ijtimoiy moslashuvi va bilim o'zlashtirishini sezilarli darajada yaxshilash mumkin.

REFERENCES

1. Виготский Л.С. Воображение и творчество в детском возрасте. — Москва: Педагогика, 1991.

2. Реан А.А. Психология девиантного поведения школьников. — Санкт-Петербург: Питер, 2010.
3. Назарова М. Pedagogik diagnostika asoslari. — Toshkent: O‘zbekiston nashriyoti, 2016.
4. Jalolov J. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2012.
5. Abduqodirov A. O‘zlashtirishi sust o‘quvchilar bilan ishlash metodikasi. — Samarqand: Navoiy nomidagi samDU nashriyoti, 2019.
6. Shoumarov H., Karimov I. Yosh va pedagogik psixologiya. — Toshkent: O‘qituvchi, 2005.
7. G‘ulomov S. va boshqalar. Umumiy pedagogika. — Toshkent: TDPU nashriyoti, 2014.
8. Xudoyberganova D. Psixologik xizmat ko‘rsatish nazariyasi va amaliyoti. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2017.
9. Adizova N. Muammoli bolalar psixologiyasi. — Qarshi: Nasaf nashriyoti, 2020.
10. Farhodxo‘jayev A. O‘quvchilarning ijtimoiy moslashuvi va muomala madaniyati. — Toshkent: Ilm Ziyo, 2018.